

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

FALSAFA FANI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING INTRAPERSONAL INTELEKTINI RIVOJLANTIRISH: METODIK TA'MINOT VA DIDAKTIK MODELLASHTIRISH

Rayimov Alisher Xoldorovich

Farg'ona davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi.

e-mail: alisherrayimov@mail.ru ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-3364-645X>

Annotatsiya.

Tadqiqotning maqsadi falsafa fani imkoniyatlaridan foydalangan holda bo'lajak o'qituvchilarda intrapersonal intellektni rivojlantirishning metodik tizimi va didaktik modelini takomillashtirishdan iborat. Tadqiqot metodologiyasi tizimli, shaxsga yo'naltirilgan, refleksiv va aksiologik yondashuvlarni, pedagogik modellashtirish hamda interfaol ta'lim usullarini o'z ichiga oladi. Asosiy natija sifatida maqsadli, jarayonli-mazmunli, tashkiliy-faoliyatli va mezonli-baholash bloklaridan iborat konseptual model ishlab chiqildi. Shuningdek, talabalarda o'z-o'zini anglash, emotsional boshqaruv va kasbiy refleksiya ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan "Toshoyna", "Mantiqiy navigator", "Tafakkur labirinti", "Vaqt kapsulasi" kabi mualliflik metodlari amaliyotga joriy etildi. Olingan natijalarni empirik baholash uchun motivatsion-me'yoriy, kognitiv-me'yoriy, refleksiv-faoliyatli va aksiologik-me'yoriy mezonlar hamda ularning darajalari (yuqori, o'rta, past) ishlab chiqildi. Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati shundaki, mazkur tizim talabalarda mustaqil qaror qabul qilish va pedagogik vaziyatlarni refleksiv tahlil etish kompetensiyalarini shakllantirish orqali pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini hamda ularning kasbiy moslashuvchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: intrapersonal intellekt, falsafa fani, pedagogik modellashtirish, refleksiv tahlil, didaktik ta'minot, bo'lajak o'qituvchi, kasbiy kompetentlik, innovatsion metodlar.

РАЗВИТИЕ ВНУТРИЛИЧНОСТНОГО ИНТЕЛЛЕКТА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ ФИЛОСОФСКОГО ПРЕДМЕТА: МЕТОДИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ И ДИДАКТИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ

Раимов Алишер Холдорович

Ферганский государственный университет, независимый исследователь.

Аннотация.

Цель исследования заключается в совершенствовании методической системы и дидактической модели развития внутриличностного интеллекта у будущих учителей с использованием возможностей дисциплины «Философия». Методология исследования включает системный, личностно-ориентированный, рефлексивный и аксиологический подходы, педагогическое моделирование и интерактивные методы обучения. В качестве основного результата разработана концептуальная модель, состоящая из целевого, процессуально-содержательного, организационно-деятельностного и критериально-оценочного блоков. Кроме того, в практику внедрены авторские методы «Зеркало», «Логический навигатор», «Лабиринт мышления» и «Капсула времени», направленные на формирование у студентов навыков самопознания, эмоциональной саморегуляции и профессиональной рефлексии. Для эмпирической оценки полученных результатов разработаны мотивационно-нормативный, когнитивно-нормативный, рефлексивно-деятельностный и аксиологически-нормативный критерии, а также определены уровни их сформированности (высокий, средний, низкий). Научно-практическая значимость исследования заключается в том, что предложенная система способствует формированию у студентов компетенций самостоятельного принятия решений и рефлексивного анализа педагогических ситуаций, повышая качество подготовки педагогических кадров и их профессиональную адаптивность.

Ключевые слова: внутриличностный интеллект, философия, педагогическое моделирование, рефлексивный анализ, дидактическое обеспечение, будущий учитель, профессиональная компетентность, инновационные методы.

DEVELOPING THE INTRAPERSONAL INTELLIGENCE OF FUTURE TEACHERS BASED ON THE SUBJECT OF PHILOSOPHY: METHODOLOGICAL SUPPORT AND DIDACTIC MODELING

Rayimov Alisher Xoldorovich

Abstract.

The purpose of this study is to improve the methodological system and didactic model for developing intrapersonal intelligence in future teachers by utilizing the educational potential of philosophy. The research methodology incorporates systemic, learner-centered, reflective, and axiological approaches, along with pedagogical modeling and interactive teaching methods. As a key outcome, a conceptual model consisting of goal-oriented, process-content, organizational-activity, and criterion-assessment blocks was developed. In addition, original methods such as "Mirror," "Logical Navigator," "Labyrinth of Thought," and "Time Capsule" were introduced into practice to develop students' self-awareness, emotional self-regulation, and professional reflection skills. For the empirical assessment of the results, motivational-normative, cognitive-normative, reflective-activity, and axiological-normative criteria were developed, with three levels of development identified: high, medium, and low. The scientific and practical significance of the study lies in the fact that the proposed system contributes to the development of students' competencies in independent decision-making and reflective analysis of pedagogical situations, thereby improving the quality of teacher training and enhancing their professional adaptability.

Keywords: intrapersonal intelligence, philosophy, pedagogical modeling, reflective analysis, didactic support, future teacher, professional competence, innovative methods.

Kirish. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim mazmunini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish hamda raqobatbardosh mutaxassisnlarni tayyorlash davlat siyosati darajasidagi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan [1]. Ushbu jarayonda ijtimoiy-gumanitar fanlar, xususan, "Falsafa" fani alohida ahamiyat kasb etadi. Falsafa insonning olam, jamiyat va o'zlik haqidagi ilmiy-falsafiy dunyoqarashini shakllantiruvchi, tanqidiy va mantiqiy fikrlash madaniyatini rivojlantiruvchi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni qaror toptiruvchi fundamental fan hisoblanadi [2]. Shu bois, oliy ta'lim muassasalarida mazkur fanni o'qitish bo'lajak mutaxassisnlarning kasbiy kompetentligi bilan bir qatorda ularning intellektual, ma'naviy va fuqarolik salohiyatini rivojlantirishning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy pedagogika sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi faqat fanga oid bilimlar va metodik ko'nikmalar bilan emas, balki ularning o'zini anglash, o'zini boshqarish, shaxsiy rivojlanish strategiyalarini belgilash va refleksiv fikrlash qobiliyatlari bilan ham belgilanadi [3]. Ushbu ko'nikmalar majmui zamonaviy ilm-fanda "intrapersonal intellekt" tushunchasi ostida umumlashadi [4]. Falsafa fanini o'qitish jarayoni aynan shu intrapersonal intellektni maqsadli rivojlantirish uchun qulay didaktik va metodologik platforma bo'lib xizmat qiladi. Shunga qaramay, amaliyotda falsafa fanini o'qitish ko'pincha an'anaviy axborot uzatish doirasida qolib, shaxsning ichki refleksiv jarayonlarini faollashtiruvchi aniq metodik tizimlar va pedagogik modellar yetishmovchiligi kuzatilmogda [5]. Shuning uchun tadqiqotning maqsadi falsafa fani asosida bo'lajak o'qituvchilarda intrapersonal intellektni rivojlantirishning metodik tizimi va didaktik modelini ishlab chiqishdan iborat.

2. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bo'lajak o'qituvchilarda intrapersonal intellektni rivojlantirish metodikasini modellashtirishda kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, refleksiv, aksiologik va faoliyatga asoslangan yondashuvlarning metodologik imkoniyatlaridan foydalanildi. Ushbu yondashuvlar talabaning ta'lim jarayonida o'z ichki rivojlanish jarayonlarini anglovchi va boshqaruvchi faol subyekt sifatida shakllanishiga xizmat qiladi [6]. Modellashtirish metodi doirasida intrapersonal intellektni rivojlantirishning maqsadlari, mazmuni, mexanizmlari, pedagogik shart-sharoitlari va kutilayotgan natijalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar yaxlit tizim sifatida tahlil qilindi. Tadqiqot obyekti sifatidagi pedagogik jarayonni loyihalashda ehtiyoj-motivatsiya, axborotli ijro va refleksiv baho kabi tarkibiy qismlar inobatga olindi [7]. Shuningdek, nazariy bilimlarni o'zlashtirish diagnostikasi, o'quv faoliyatining muqobil modellarini amaliyotga joriy etish uchun qat'iy algoritmik bosqichlarga (intellektual resurs, intellektual salohiyat, intellektual faoliyat va intellektual faoliyatni tashkil etish) asoslanildi.

3. TADQIQOT NATIJALARI

3.1. Falsafa fani doirasida intrapersonal intellektni rivojlantirishning didaktik modeli. Intrapersonal intellektni falsafa fani vositasida rivojlantirish maqsadida yaxlit konseptual model ishlab chiqildi. Model bir-biri bilan uzviy bog'liq to'rt asosiy komponentni o'z ichiga oladi:

1. **Maqsadga yo'naltirilgan komponent:** butun pedagogik tizimning strategik yo'nalishini belgilaydi [8]. Asosiy maqsad — falsafiy bilimlar asosida talabalarda o'zini anglash, o'zini baholash, o'zini boshqarish, shaxsiy maqsadlarni belgilash va o'z ustida ishlash kompetensiyalarini shakllantirish. Ushbu komponent shaxsga yo'naltirilganlik, faollik, refleksivlik, izchillik va uzluksizlik tamoyillariga asoslanadi.
2. **Jarayonli-mazmunli komponent:** intrapersonal intellektni rivojlantirishning amaliy mexanizmini ifodalovchi to'rt bosqichli tizim.

Diagnostik-yo'naltiruvchi bosqich: talabalarning intrapersonal intellekt rivojlanish darajasi, shaxsiy ehtiyojlari va motivatsiyasi aniqlanadi.

Tashkiliy-tayyorgarlik bosqichi: mazmun, shakl va metodlar tanlanadi, ta'lim muhiti va pedagogik resurslar tayyorlanadi.

Amaliy-ijodiy bosqich: falsafa darslarida interaktiv metodlar, muammoli tahlil va refleksiv mashqlar orqali talabalar

o'z hayotiy maqsadlari va qadriyatlarini tahlil qilishga jalb qilinadi.

Natijaviy-refleksiv bosqich: erishilgan natijalar ichki refleksiya va o'z-o'zini baholash mexanizmlari yordamida tahlil qilinadi.

3. **Tashkiliy-faoliyatga yo'naltirilgan komponent:** falsafa fanining inson, ong, shaxs, qadriyat, erkinlik, axloq kabi mavzularini o'z ichiga oladi [9]. O'qitish shakllari (ma'ruza, seminar, trening, munozara, refleksiv sessiyalar) va metodlari (muammoli o'qitish, keys-tahlil, debatlar, refleksiya kundaliklari, SWOT-tahlil) aniqlangan.
4. **Mezonli-baholash komponenti:** intrapersonal intellektning shakllanganlik darajasini aniqlash vazifasini bajaradi [10]. U to'rt ko'rsatkichga tayanadi: motivatsion-me'yoriy, kognitiv-me'yoriy, refleksiv-faoliyatli va aksiologik-me'yoriy (2-jadval).

3.2. Falsafa fani mavzularining intrapersonal intellektni rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlari. Falsafa fanining har bir mavzusi intrapersonal intellektni maqsadli rivojlantirish uchun ulkan potentsialga ega. Tadqiqot davomida fanning asosiy mavzulari va ularning intellektual ta'siri tizimlashtirildi (1-jadval).

1-jadval. Falsafa fanining bo'lajak o'qituvchilarda intrapersonal intellektni rivojlantirishdagi imkoniyatlari

№	Falsafa fani mavzusi	Intrapersonal intellektni rivojlantirishdagi imkoniyatlari
1	Falsafaning mohiyati va jamiyat taraqqiyotidagi roli	Talabalarda o'zining hayotiy pozitsiyasini belgilash, shaxsiy dunyoqarashini shakllantirish va o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini rivojlantiradi.
2	Sharq falsafasining mohiyati va ijtimoiy taraqqiyotdagi roli	Sharq mutafakkirlarining komil inson, ma'naviy poklik va o'zini tarbiyalash haqidagi g'oyalari orqali refleksiv fikrlash va ichki uyg'unlikni shakllantiradi.
3	G'arb falsafasining ustuvor yo'nalishlari...	Mustaqil fikrlash, individual mas'uliyat va shaxsiy qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantiradi.
4	Borliq falsafasi (Ontologiya)	Insonning o'z mavjudligi, hayot maqsadi va shaxsiy identifikatsiyasi haqida chuqur mushohada yuritish imkonini yaratadi.
5	Rivojlanish falsafasi	O'zgarishlarga moslashish, o'zini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish va shaxsiy taraqqiyot dinamikasini anglashni ta'minlaydi.
6	Bilish falsafasi	Talabalarda o'z bilish jarayonlarini tahlil qilish, metakognitiv tafakkur va o'z-o'zini baholash kompetensiyalarini shakllantiradi.
7	Mantiq	Qaror qabul qilishda izchillik, ichki fikriy tartib va o'z mulohazalarini nazorat qilish qobiliyatini rivojlantiradi.
8	Jamiyat falsafasi	Shaxsning jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy mas'uliyati va o'z ijtimoiy rolini anglashga xizmat qiladi.
9	Tarix falsafasi, sivilizatsiya va madaniyat	Tarixiy tajriba asosida o'z hayotiy qadriyatlari va kelajak maqsadlarini qayta ko'rib chiqish imkonini beradi.
10	Inson falsafasi (Falsafiy antropologiya)	O'z shaxsiy imkoniyatlari, ehtiyojlari, qobiliyatlari va ichki resurslarini anglashni rivojlantiradi.
11	Qadriyatlar falsafasi	Shaxsiy qadriyatlar tizimini shakllantirish, ustuvor maqsadlarni belgilash va axloqiy tanlovlarni ongli amalga oshirishga yordam beradi.
12	Etika	Vijdon, mas'uliyat, o'zini nazorat qilish va o'z xatti-harakatlarini baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi.
13	Estetika	Ichki hissiy holatlarni anglash, emotsional refleksiya va ijodiy o'zini ifodalash imkoniyatlarini kengaytiradi.
14	Global jarayonlar va barqaror taraqqiyot	Global muammolar fonida shaxsiy mas'uliyat hissi, kelajakni rejalashtirish va strategik fikrlashni rivojlantiradi.
15	Korrupsiyaning mohiyati, oqibatlar va unga qarshi kurash	Halollik, prinsipiallik, o'zini boshqarish va ichki axloqiy nazorat mexanizmlarini mustahkamlaydi.

3.3. Intrapersonal intellektni baholash mezonlari va darajalari. Modelning muhim qismi bo'lgan mezonli-baholash komponenti talabalarining intrapersonal intellekti shakllanganlik darajasini uchta (yuqori, o'rta, past) ko'rsatkichda baholaydi (2-jadval).

2-jadval. Bo'lajak o'qituvchilarda intrapersonal intellektni rivojlantirish mezonlari va darajalari

Mezonlar	Yuqori daraja	O'rta daraja	Past daraja
Motivatsion-me'yoriy	O'zini anglash va shaxsiy rivojlanishga barqaror ichki ehtiyoj; shaxsiy va kasbiy maqsadlarini aniq belgilay oladi; o'z faoliyati uchun mas'uliyatni his qiladi.	Rivojlanishga qiziqish mavjud, ammo doimiy emas; maqsad belgilashda tashqi ta'sirlarga tayanadi.	Rivojlanishga qiziqish past; maqsadlar noaniq; tashqi rag'bat bo'lmasa faollik ko'rsatmaydi.
Kognitiv-me'yoriy	Intrapersonal intellekt, refleksiya haqida chuqur nazariy bilimga ega; falsafiy tushunchalarni	Asosiy tushunchalar haqida yetarli bilimga ega; nazariyani amaliyot bilan bog'lashda	Bilimlari yuzaki; tushunchalarni amaliyotga tatbiq eta

	shaxsiy hayot bilan bog'laydi.	qiyinchiliklarga uchraydi.	olmaydi; mustaqil tahlil ko'nikmalari yo'q.
Refleksiv-faoliyatli	Fikr, his-tuyg'u va harakatlarini muntazam tahlil qiladi; o'zini boshqarish yuqori darajada; mustaqil qaror qabul qiladi.	O'z faoliyatini tahlil qilishga harakat qiladi, ammo refleksiya tizimli emas; qaror qabul qilishda yordamga muhtoj.	Tahlil ko'nikmalari yetarli emas; refleksiya kam; o'zini boshqarishda qiyinchiliklar mavjud.
Aksiologik-me'yoriy	Shaxsiy qadriyatlar tizimi barqaror; hayotiy va kasbiy maqsadlar aniq; qaror qabul qilishda ma'naviy qadriyatlarga tayanadi.	Qadriyatlar tizimi shakllanish jarayonida; axloqiy qaror qabul qilishda tashqi ta'sirlar seziladi.	Qadriyatlar ziddiyatli; maqsadlar shakllanmagan; axloqiy mezonlarga yetarlicha tayanmaydi.

3.4. Innovatsion mualliflik metodlari va amaliy texnologiyalar. Talabalarning intrapersonal intellektini o'stirish uchun dars jarayonida maxsus lokal texnologiyalar va mualliflik metodlari ishlab chiqildi hamda aprotatsiyadan o'tkazildi [11]. Ularning asosiylari quyidagilar:

- **“TOSHOYNA” metodi:** refleksiv-psixologik metod bo'lib, to'rt bosqichdan iborat: 1) *Hissiyotni aniqlash* (vaziyatdagi emotsiyani yozish); 2) *Sabablarni tahlil qilish* (hissiyot ildizini topish); 3) *O'zini baholash* (kuchli va zaif jihatlarni tahlil qilish); 4) *Rivojlanish qarorini qabul qilish* (kelgusi xatti-harakatni belgilash). Bu orqali talabada pedagogik nizolarda hissiy barqarorlikni ta'minlash ko'nikmasi hosil qilinadi.

- **“MANTIQUIY NAVIGATOR” metodi:** prognostik-refleksiv usul [12]. Besh bosqichni o'z ichiga oladi: maqsadni belgilash, mavjud imkoniyatlarni tahlil qilish, xavf va to'siqlarni aniqlash, harakatlar rejasini ishlab chiqish, o'z-o'zini monitoring qilish va tuzatish kiritish.

- **“TAFAKKUR LABIRINTI” metodi:** analitik-refleksiv usul. Talaba qiyin vaziyatni tanlaydi, ichki ovozlarni aniqlaydi, tanlovlarni modellashtiradi, qarorni qadriyatlar filtri orqali o'tkazadi va yakuniy qarorni refleksiya qiladi. Masalan, o'quvchiga tanbeh berish yoki tushuntirish dilemmasini ijobiy va salbiy oqibatlari orqali hal etadi.

- **“VAQT KAPSULASI” metodi:** prognostik-aksiologik metod bo'lib, talaba o'zining bugungi holatini (“Bugungi Men”) va 1 yoki 5 yildan keyingi maqsadli obrazini (“Kelajakdagi Men”) yozma tasvirlaydi, erishish yo'llari bo'yicha “rivojlanish ko'prigi” quradi. Muhrlangan kapsula belgilangan vaqtdan so'ng ochilib, tahlil qilinadi [13].

- **“QALB KOMPASI” metodi:** talabalar o'zlari uchun eng muhim 5 ta qadriyatni belgilaydilar va ularni pedagogik faoliyatdagi ustuvor yo'nalishlar bilan bog'laydilar. Masalan, adolat va ijodkorlik qadriyatini dars tashkil etish tamoyiliga aylantirish.

- **“ORZULAR MARSHRUTI” metodi:** kasbiy strategik rejalashtirishga qaratilgan.

Bundan tashqari, an'anaviy mashg'ulotlarni faollashtirish uchun 5 bosqichli o'qitish metodikasi taklif etildi: I. “10 kashfiyot”, II. “Birgalikdagi yechim”, “Muammo xaritasi”, “SWOT-tahlil”, III. “Aqliy xarita (MindMap)”, IV. “6-savat”, V. “SCAMPER”, “O'zganing fikri” metodlari izchil qo'llanildi [14]. Shuningdek, “Erkin fikr maydonchasi”, “Teran nigoh”, “Sofistika?”, “Falsafiy savol”, “Nostandart fikr”, “Darvoza”, “Falsafiy tasvir” kabi lokal va kreativ trening texnikalari joriy etildi. Masalan, “Darvoza” texnikasida talabalar A4 qog'oz va qaychi yordamida 5 daqiqa ichida barcha guruh a'zolari sig'adigan “kreativ darvoza” yasashlari lozim bo'lib, bu nostandart fikrlashni rivojlantiradi.

4. MUHOKAMA

Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, falsafa fani doirasida intrapersonal intellektni rivojlantirish talabalarda passiv bilim qabul qilishdan faol ichki refleksiyaga o'tishni ta'minlaydi [15]. An'anaviy ta'lim ko'pincha kognitiv bilimlarni uzatish bilan cheklansa, ishlab chiqilgan didaktik model metakognitiv jarayonlarni — talabaning o'z fikrlashi ustidan nazoratini faollashtiradi. Tadqiqotda qo'llanilgan mualliflik metodlari (Toshoyna, Mantiqiy navigator) shaxsga o'z emotsiyalarini obyektivlashtirishga yordam beradi. Bu holat psixologik adabiyotlardagi metakognitiv nazariyalar bilan hamohang bo'lib, shaxsning stressli va ziddiyatli pedagogik holatlarda barqarorligini ta'minlaydi. Falsafaning ontologiya, etika, aksiologiya kabi bo'limlari shunchaki nazariy bilim sifatida emas, balki shaxsning ichki orientirlarini kalibrash mexanizmi sifatida ishlashi isbotlandi. “Vaqt kapsulasi” yoki “Orzular marshruti” kabi metodlar talabalarda hayotiy maqsadlarning aniq vizualizatsiyasini yaratish orqali ichki motivatsiyani mustahkamlaydi, bu esa kelajakda kasbiy xiralashuv (professional burnout) xavfini keskin pasaytiradi. Ilmiy tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan metodika va dars texnologiyalari to'plami oliy pedagogik ta'lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish amaliyotiga bevosita tayyor innovatsion paket sifatida taqdim etilishi mumkin.

5. XULOSA

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi:

Intrapersonal intellekt bo'lajak o'qituvchining shaxsiy va kasbiy kamolotini, refleksiv qobiliyatini va emotsional barqarorligini ta'minlovchi markaziy integrativ tuzilmadir. Uni rivojlantirish an'anaviy ta'lim emas, balki maxsus modellashtirilgan interfaol, refleksiv pedagogik texnologiyalarni talab qiladi.

Falsafa fani o'zining metakognitiv, aksiologik va mantiqiy apparati orqali intrapersonal intellektni rivojlantirish uchun eng kuchli didaktik potentsialga ega ekanligi aniqlandi. Ontologiya, etika, bilish falsafasi kabi mavzular shaxsning o'zini anglash mexanizmlari bilan to'g'ridan-to'g'ri rezonansga kirishadi.

Ishlab chiqilgan 4 komponentli (maqsadga yo'naltirilgan, jarayonli-mazmunli, tashkiliy-faoliyatga yo'naltirilgan, mezonli-baholash) didaktik model o'quv jarayonini tizimlashtirishga va uning samaradorligini obyektiv nazorat qilishga to'liq imkon beradi.

“Toshoyna”, “Mantiqiy navigator”, “Tafakkur labirinti” kabi mualliflik metodlari bo‘lajak pedagoglarda kasbiy refleksiyaning o‘zini nazorat qilishni va strategik qaror qabul qilishni kafolatli ravishda shakllantiradi.

Tadqiqotning cheklovlari sifatida mazkur innovatsion metodlarni qo‘llash uchun professor-o‘qituvchilardan yuqori darajadagi fasilitatorlik va kouching malakalari, shuningdek, auditoriyada yuksak psixologik ishonch muhiti talab etilishini ko‘rsatish mumkin. Kelajakdagi tadqiqotlar intrapersonal intellektni raqamli ta‘lim muhitida (e-learning) masofaviy platformalar orqali rivojlantirish mexanizmlarini tahlil qilishga yo‘naltirilishi tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // *Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi*. – URL: <https://lex.uz/docs/-5841063> (LEX.UZ)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni // *Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi*. – URL: <https://lex.uz/docs/-4545884> (LEX.UZ)
3. Асмолов А. Г. *Психология личности: культурно-историческое понимание развития человека*. – 6-е изд. – Москва: Смысл, 2023. – 448 с. – ISBN 978-5-89357-388-6. – URL: <https://www.moscowbooks.ru/book/1157319/> (Москва Книги)
4. Gardner H. E. *Multiple Intelligences: New Horizons in Theory and Practice*. – New York: Basic Books, 2006. – 320 p. – ISBN 978-0-465-04768-0. – URL: <https://www.hachette.com.au/howard-gardner/multiple-intelligences-new-horizons-in-theory-and-practice> (hachette.com.au)
5. Mayer J. D., Salovey P., Caruso D. R. Emotional Intelligence: New Ability or Eclectic Traits? // *American Psychologist*. – 2008. – Vol. 63, No. 6. – P. 503–517. – DOI: 10.1037/0003-066X.63.6.503. – URL: <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/18793038/> (PubMed)
6. Савенков А. И. *Психология детской одаренности: учебник для бакалавриата и магистратуры*. – 2-е изд., испр. и доп. – Москва: Юрайт, 2021. – 334 с. – ISBN 978-5-534-07918-0. – URL: <https://urait.ru/bcode/475521> (library.tversu.ru)
7. Селезнева Е. В. *Развитие акмеологической культуры личности: учебное пособие* / под общ. ред. А. А. Деркача. – Москва: РАГС, 2007. – 200 с. – URL: <https://www.dissercat.com/content/psikhologicheskaya-kontsepsiya-razvitiya-professionalnoi-kultury-subekta-truda> (DisserCat)
8. Зеер Э. Ф. *Психология профессионального развития: учебное пособие*. – 2-е изд., стер. – Москва: Академия, 2007. – 240 с. – ISBN 978-5-7695-4482-8. – URL: <https://elibrary.wkap.kz/lib/document/VSEK/A3B4BD19-37F0-4695-891C-20B41C1599E6/> (Электронная библиотека)
9. Xodjayev B. X. *Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti*. – Toshkent: Sano-standart, 2017. – 416 b. – URL: <https://namdu.uz/uz/books/6313> (www.namdu.uz)
10. Musurmonova O. *Pedagogik texnologiyalar – ta‘lim samaradorligi omili*. – Toshkent, 2020. – 206 b. – ISBN 978-9943-05-5230. – URL: <https://akbt.terdpi.uz/uz/books/1461> (Akbt)
11. Максимова В. Н. *Интеграция в системе образования*. – Санкт-Петербург: ЛОИРО, 1999. – 83 с. – URL: <https://nauka-pedagogika.com/pedagogika-13-00-01/dissertaciya-proektirovanie-i-realizatsiya-integrativnoy-razvivayuschey-obrazovatelnoy-programmy-doshkolnogo-uchrezhdeniya> (Наука Педагогика)
12. Schön D. A. *The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action*. – London: Routledge, 1992. – 384 p. – URL: <https://www.routledge.com/The-Reflective-Practitioner-HowProfessionals-Think-in-Action/Schon/p/book/9781857423198> (Routledge)
13. Hattie J. *Visible Learning for Teachers: Maximizing Impact on Learning*. – London; New York: Routledge, 2012. – 296 p. – URL: <https://www.routledge.com/Visible-Learning-for-Teachers/Hattieah2/p/book/9780203181522> (Routledge)
14. Torrance E. P. The Nature of Creativity as Manifest in Its Testing // *The Nature of Creativity: Contemporary Psychological Perspectives* / ed. by R. J. Sternberg. – New York: Cambridge University Press, 1988. – P. 43–75. – URL: https://books.google.com/books/about/The_Nature_of_Creativity.html?id=ZY05AAAAIAAJ (Google Books)
15. Хуторской А. В. *Педагогическая инноватика: методология, теория, практика*. – Москва: Изд-во УНЦ ДО, 2005. – 222 с. – URL: <https://eidos-institute.ru/science/works/> (eidos-institute.ru)